

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

O`zbek adabiyoti kafedrası

Ifodali o`qish

Navoiy - 2008

O`zbek tili va adabiyoti fakulteti kunduzgi va sirtqi bo`lim talabalari uchun «Ifodali o`qish» fanidan tayyorlangan ushbu ma`ruza matnini yaratishda Qobuljon Oripov va Mahmuda Obidovalarning pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun mo`ljallangan «Ifodali o`qish» qo`llanmasiga tayanildi.

Notiqlik san'ati tarixidan

Reja:

Kirish

1. Ifodali o`qish tarixidan.
2. Aristotel va uning "Ritorika" asari.
3. Demosfen va Sisteronlarning notiqlik tarixidagi o`rni va o`ziga xos xususiyatlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel - "Poetika" T. 1980 y.
2. Axmedov A. - "Notiqlik san'ati" T. 1967 y.
3. Oripov K., Obidova M. "Ifodali o'qish" T.1992 y.
4. Inomxo'jayeva S., Zunnunov A. "Ifodali o'qish asoslari" T. 1978 y.
5. Jo'rayev K. "Ifodali o'qish va himoya qilish" T. 1986 y.
6. Yodgorov N. "Gigiyena golosa i yego fiziologicheskoye osnovo" M. 1967.
7. Leonardi YE.I. "Deksiya orfoepiya" M. 1967.
8. Sayfuddinov A. "Og'zaki nutqda pauzaning ahamiyati" T. 1965 y.
9. Xo'jayeva L. "Lektor haqida ifoda vositalari" T. 1964 y.

Ifodali o`qish, ayniqsa asarning g`oyaviy mazmunini chuqur tushunishda, badiiy xususiyatlarini ochishda katta ahamiyatga ega. Barcha janrdagi asarlar bir xilda o`qilmaganidek, barcha ham ifodali o`qiy olish qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa, oliy o`quv yurtlarining ko`pchilik talabalari uzoq vaqt o`zlari mansub bo`lgan sheva ta'sirida bo`ladilar. Sheva ta'sirida "ifodali" o`qilgan asar mazmuniga esa putur yetadi, uning badiiy-estetik ta'sirchanligi susayadi. Shuning uchun, filolog talabalarni shevalar ta'siridan qutqarish, ularni ifodali o`qishga o`rgatish tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega, asar mazmunini puxta o`zlashtirishda, uning badiiy mohiyatini ochishda yaqindan yordam beradi.

... Badiiy adabiyot paydo bo`lishi bilan uning ifodali o`qishi, og`zaki ijrochilik taraqqiyoti ham ziddiyatlidir. Jumladan, adabiyot va san'at hali muayyan ma'noda sinkretik xarakterga ega bo`lgan qadimgi davrda badiiy va ifodali o`qish san'ati ham sinkretik xarakter kasb etgan. Chunonchi, bu davrda badiiy adabiyot yaratuvchilari ayni chog`da uning ijrochilari sifatida ko`proq e'tiborga ega bo`lgan. Jumladan, "Avesto"ning

yaratuvchilari, bora-bora uning professional ijrochilariga aylanib qolgan koshinlar toifasi xalq orasida adiblar sifatidagina emas, balki jonli soʻz sehri bilan moʻjizalar koʻrsatuvchi mutaxassislar sifatida ham katta eʼtibor qozonganlar. Tarixiy taraqqiyot davomida adabiyot bilan birga ijrochilik sanʼati ham rivoj topa bordi. Masalan, Oʻrta Osiyoda shoirlar bilan bir qatorda, ularning asarlarini majlis-anjumnalarda, keng mehnatkash xalq orasida ijro etuvchi sanʼatkorlar - roviylar toifasi paydo boʻladi.

Roviylik va roviylar haqida tarixiy manbalarda qimmatli maʼlumotlar uchraydi. Jumladan, Nizom Aruz Samarqandiy maʼlumotiga qaraganda, Firdavsiy "Shohnoma"ni ijod etgach, Ali Daylam unga xattotlik, Abudulaf roviylik qildi.

Abu Abdullo Rudakiyning roviysi boʻlgan Majid ismli tarixiy shaxs haqidagi maʼlumotlar ham qiziqarlidir. Mashhur sharqshunos A.T.Tohirjonov Rudakiy asarlarining Majid ismli professional ijrochisi boʻlganligini eʼtirof etadi va uni chtetsravi deb ataydi.

Yirik tojik yozuvchisi, Tojikiston Fanlar akademiyasining muxbir aʼzosi Sotim Ulugʻzodaning maʼlumotlariga koʻra "roviylar"- badiiy oʻqish ustalari boʻlib, xaloyiq oʻrtasida Rudakiy, Daqiqiy, Shahid Balxiy, Abdushukur Balxiy va boshqa oʻnlab oʻzlariga zamondosh va oʻtmish shoirlari sheʼrlarini maxsus ohang bilan oʻqirdilar. Xususan, Rudakiyning yoqimli sheʼru qoʻshilari ularning ogʻzidan tushmasdi.

Ulkan sharqshunos Ye.E.Bertels ham oʻrta asrlarda roviylar toifasi mavjudligini eʼtirof etadi.

Koʻrinadiki, qadimgi badiiy soʻz ijrochiligining butun bir yoʻnalishi, oʻziga xos maktabni tashkil etuvchi roviylar toifasi katta shon-shuhrat va ijtimoiy mavqega ega boʻlgan. Biroq, jamiyat taraqqiy qilishi bilan roviylik tarmoqlanib, XV asrlarga kelganda, mustaqil badiiy ijrochilik koʻrinishlari va ularga mansub ijrochilar toifasi voyaga yeta boshladi. Jumladan, Alisher Navoiy XV asrlarga kelib badiiy soʻz ijrochiligi sanʼatining voizlik (notiqlik), qissaxonlik, badihagoʻylik, bazlagoʻylik (latifagoʻylik), dostonxonlik, qasidaxonlik, gʻazalxonlik sanʼati shakllanib yetilganligi haqida mufassal maʼlumot beradi.

Oʻzbek badiiy soʻz ijrochiligi sanʼatiga xos boʻlgan bedilxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik bilan birga, qissagoʻylik, hikoyagoʻylik, latifagoʻylik, navhagarlik, ertakchilik, kulguli hikoyagoʻylikning taraqqiyoti bu sanʼatning juda qadimiy va boy tarixga, maʼlum anʼanaga ega ekanligini anglatadi.

Oʻrta Osiyo xalqlari pedagogikasi tarixida ifodali oʻqish sanʼatiga boʻlgan eʼtibor alohida mavqe kasb etadi.

Notiqlik san'atining tarixi juda uzoq bo'lib, u eramizdan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllana boshladi. Yunonistonda aristokratiya, demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasida davlat ishlarida, xalq majlislarida, senat kengashlarida, sud ishlarida va yig'ilishlarda respublikaning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan.

Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni hohlagan har bir kishi uchun chiroyli so'zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylana borgan.

Sud ishlarida o'rnatilgan tartib notiqlik san'atining yuksalishiga katta bir turtki bo'ldi. Sud jarayonida javobgar o'ziga qo'yilayotgan aybning asossizligini isbotlab gapirishi, da'vogar esa o'z fikrida qattiq turishi, uni qoralashi lozim edi. Lekin hamma ham chiroyli so'zlash qobiliyatiga ega bo'lavermaydi. Shuning natijasida, nutq matnlarini yozib beradigan bilimdon kishilarga ehtiyoj tug'ila boshladi va yozma nutq san'atini yaxshi egallagan notiqnlarni o'sha zamon tili bilan "logograflar" deb atay boshladilar.

Notiqlik san'atining keng ko'lamda qanot yoyishi esa, o'z navbatida uning sud notiqligi, harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik kabi shoxobchalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Sudda gapiriladigan chiroyli nutq o'rnini, endilikda aniq qonuniyatga ega bo'lgan sud notiqligi egalladi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, notiqlikning yana bir turi - epideyktik, ya'ni tantanali nutq uslubi paydo bo'ldi.

Bulardan tashqari, notiqlik san'atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, notiqlik san'atining nazariyasidan iborat bo'lgan "Ritorika" ilmining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rimdagi barcha shoirlar va notiqlar shu maktabdan, ya'ni ritorika maktabidan ta'lim olganlar.

Notiqlar tomonidan yaratilgan nutq matnlari nasriy va poetik ijod mazmunasi hisoblangan. Bunday ijodkor notiqnlarning nomi o'z mamlakati doirasidan chiqib, jahonga ma'lum va mashhur bo'lgan. Aristotel, Demosfen va Sitseronlar shular jumlasidandir.

O'rta Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo'lgan Aristotel eramizdan avval, 384 yili Stagir (Makedoniya yarim orolidagi Xalkidik)da shifokor oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Nikomax Aleksandr Makedonskiyning nabirasi podsho Aminti II saroyida shifokorlik qildi.

Aristotel 17 yoshida Afinaga keladi va bu yerda o'z zamonasining mashhur olimlaridan bo'lgan Platonga shogird bo'ladi.

342 yili Makedoniya podshosi Filipp o'zining Aleksandr nomli 13 yoshli o'g'lining tarbiyasi uchun Aristotelni Mitilendan chaqirib oladi. Bu yerda u falsafa maktabini ochadi va katta kutubxona tashkil qiladi.

Shu davrda Gretsyada chiroyli so'zlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Buning natijasida qator notiqlik maktablari ochiladi. Bu maktablarda so'z san'ati ustalari - shogirdlar yetishtirib chiqarilar edi. Keyinchalik chiroyli so'zlash haqida qo'llanmalar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri Aristotelning "Ritorika" nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur "Poetika" nomli asaridan so'ng, ya'ni eramizdan oldingi 330 yillarda Afinaga so'nggi marta qaytib kelganda yozgan edi.

Ma'lumki, ungacha Anaksimenes, Lampsak ham "Ritorika" nomli qo'llanma yaratgan edi. Bu ikki asar bir-biriga tamoman o'xshamaydi. Ularning birinchisi qo'llanma bo'lsa, ikkinchisi chiroyli so'zlash nazariyasi bo'yicha ilmiy mulohazalardan iborat.

Aristotel har bir jumlaning asosiy fikrini ifoda etishga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo'lishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan so'zlashi mulohaza yuritayotgan fikrining tinglovchi qalbiga tez yetishiga muhim omil bo'lishini alohida uqtiradi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning auditoriyani o'ziga jalb etishi uchun hazil-mutoiba so'zlar bilan lirik chekinish qilib tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko'rgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chog'ishtirish va metaforalarni qo'llasa, nutqining ta'sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo'ymasligi kerakligini ham ta'kidlaydi.

Aristotel notiqlik san'atini egallashni 5 qismga bo'lib o'rgatadi:

1. Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash).
2. Materialni joylashtirish shakli (rejasi).
3. Materialni eslab qolish (o'zlashtirish).
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri aks ettirish.
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish.

Aristotel fikrlari hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

Umrini ona-Vatanining gullab-yashnashiga bag'ishlagan davlat arbobi, mashhur notiq Demosfen eramizdan oldingi 384 yili Afinada o'ziga to'q oilada dunyoga keldi. Uning otasining ismi ham Demosfen bo'lib, qurol-yaroq ustaxonasining egasi edi.

Demosfen notiqlik bilan shug'ullanishdan avval o'z ustozini yo'lidan borib, boshqalarga sudda so'zlanadigan nutqning matnini yozib berar va bu ishlari uchun yaxshigina haq olar edi. Bora-bora nutqiy matnlar yozish

Demosfenni qoniqtirmaydi. U otashin vatanparvar sifatida ijtimoiy faoliyatini vatanining ravnaqi uchun sarflashni orzu qiladi.

Yosh notiqning xalq oldidagi birinchi nutqi ayanchli holda: to`polon, kulgi, qiyqiriq, hushtak chalib masxaralash bilan qarshi olinadi. U o`z nutqini tugatolmay minbardan tushishga majbur bo`ladi.

Demosfen nutqining bunday ayanchli tugashi tabiiy edi, chunki uning tovushi juda past bo`lib, bir oz duduqlanar, "r" harfini talaffuz etolmas, g`uldirab, mujmal gapirar edi. Bulardan tashqari, uning elkasini qimirlatib turadigan odati ham bo`lib, ko`pchilik orasida o`zini tog`ri tuta bilmas edi.

Xalq majlislaridan birida Demosfen o`zini ikkinchi bor sinab ko`radi. Lekin bu safar ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so`ng Demosfen o`z nutqidagi kamchiliklarni boshqa takrorlamaslik uchun astoydil bosh qotiradi. Har kuni bir necha soatlab noto`g`ri talaffuz etayotgan so`zlari ustida qayta-qayta mashq qiladi. Hatto og`ziga tosh solib olib, qattiq va ravon gapirishga harakat qiladi. "r" tovushini to`g`ri talaffuz etish uchun esa kuchuk bolasining irillashini kuzatadi va o`zi ham xuddi shu tovushni qaytaradi.

Nihoyat uzoq muddatli tinimsiz mashqlardan so`ng Demosfer o`z maqsadiga erishadi: mashhur notiq bo`lib etishadi. Ammo, shunga qaramay, u hech qachon tayyorgarliksiz nutq so`zlamas, oldindan yozib qo`yilgan matnni yodlab olar, har bir so`z ustida puxta o`ylar, jummalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar edi. Ulug` notiqning nutqi shu qadar sodda, ravon, mantiqan puxta va jozibali bo`ldiki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasi edi.

Mark Tulliy Sitseron eramizdan oldingi 103 yilda Rimdan uzoq bo`lmagan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keladi. Uning bolalik yillari Arpina shahridagi otasiga qarashli yerlarda o`tadi. Otasi o`z farzandiga yaxshi ta`lim-tarbiya berish maqsadida Rimga ko`chib o`tadi. Sitseron u yerda yunon tili va adabiyotini mukammal egallagach, Yunonistonning mashhur so`z ustalari Litsiniy Krass va Mark Antoniy kabi notiqlardan so`z san'atining nozik sir-asrorlarini o`rganadi, ularning ajoyib nutqlarini tinglaydi.

Bo`lajak notiq, ayni vaqtda, falsafa bilan ham shug`ullanadi. Lekin uni ko`proq notiqlik san'ati qiziqtiradi. Sitseron notiqning turli mimika va harakatlari bilan so`zlashayotganini ko`rib, notiq bo`lish uchun aktyorlikdan ham xabardor bo`lish kerak ekan, degan xulosaga keladi. Shuning uchun Ezop va Rossiy kabi o`z davrining mashhur aktyorlaridan saboq oladi.

Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so`ng, 25 yoshida birinchi marotaba xalq oldida nutq so`zlashga jur'at etadi. U avval grajdanlik, so`ngra jinoiy ish jarayoni bo`yicha gapiradi. Biroq, uning bu nutqida davlat boshliqlaridan Sull hamda Kott ismli mashhur notiqalar qarshi chiqadi. Shundan keyin, u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish maqsadida zamonasining buyuk notiqalaridan hisoblangan Antio Askalonskiydan ta'lim oladi, mashhur so`z ustalaridan o`rganish niyatida Kichik osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi.

U ancha vaqtgacha nutq so`zlashda yangi usullar qidiradi. Nihoyat Osiyo hamda Attika usullari omixtasidan iborat bo`lgan yangi bir uslub kashf etadi.

Sitseron o`z - zamonasining ko`pchilik so`z ustalari singari, o`z faoliyatining ilk davrlaridayoq nutqida uslubning chiroyliligi, iboralarning jonliligi, jumalarning nafis bo`lishiga katta e'tibor beradi.

Sitseronning fikricha, notiq shunchaki, sud ishlarining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladigan qonunparast emas, balki davlat ishlarini chuqur tushunadigan xalq qayg`usiga hamdardlik qila oladigan davlat arbobi bo`lmog`i kerak. Shuning uchun notiqlik san'atiga qiziqqan har bir kishi faqat ritorika ilmiga oid ibtidoiy bilimlar bilan cheklanmasdan va o`zining tabiiy iste'dodiga ishonib qolmasdan, doimo turli fanlarni o`qib-o`rganmog`i, ilm va madaniyatning yuqori cho`qqilariga intilmog`i darkor. Bundan tashqari, "Notiqalar haqida" asarining muallifi notiqalarning odamlar diliga qo`rquv, g`azab va qayg`u sola bilishi va aksincha, bu xildagi hayajonli holatlardan kishilarni xalos qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg`ota olishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, agar notiq odamlarning turli-tuman xarakterlarini sezmasa, inson tabiatiga xos umumiy xususiyatlarni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan sabablarni tushunmasa hech qachon o`zining maqsadiga erisha olmaydi.

Sitseron "Brut" (47 yil), "Notiq" (56 yil) nomli boshqa asarlarida Rim notiqlik san'ati tarixi haqida batafsil fikr yuritib, attikachilarning nazariyalariga tamomila qarshi mulohazalar bilan maydonga chiadi. Uning ta'kidlashicha, har qanday notiqning ko`zda tutgan asosiy maqsadi - tinglovchining zavqini uyg`otib, o`ziga moyil qilishdan iboratdir. Notiq sharoitga qarab, mavjud uslublarning hammasidan baravar foydalanishi zarur.

O`zbek notiqligi tarixidan

Reja:

Kirish

1. O`rta Osiyoda notqlik san'ati.
2. Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy va voizlik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel - "Poetika" T. 1980 y.
2. Axmedov A. - "Notqlik san'ati" T. 1967 y.
3. Oripov K., Obidova M. "Ifodali o'qish" T.1992 y.
4. Inomxo'jayeva S., Zunnunov A. "Ifodali o'qish asoslari" T. 1978 y.
5. Jo'rayev K. "Ifodali o'qish va himoya qilish" T. 1986 y.
6. Yodgorov N. "Gigiyena golosa i yego fiziologicheskoye osnovo" M. 1967.
7. Leonardi YE.I. "Deksiya orfoepiya" M. 1967.
8. Sayfuddinov A. "Og'zaki nutqda pauzaning ahamiyati" T. 1965 y.
9. Xo'jayeva L. "Lektor haqida ifoda vositalari" T. 1964 y.

Notqlik - o'tmish so'z san'atining eng barkamol ommaviy janrlaridan bo'lib, bu san'atni musulmon Sharqida voizlik deb atalgan. Shunga ko'ra nutq - va'z, notiq - voiz deb yuritilgan.

O`rta Osiyo xalqlari, jumladan o`zbek xalqi IX-XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotida oldingi saflardan biriga ko'tarila olgan edi. Umuman, o`rta asrlarda fan va madaniyatning rivojida Xorazmiy, Farog'iy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qoshg'ariy, Navoiy kabi ulug' siymolar katta hissa qo'shganlar.

Bular yashagan davrni Sharq tarixida Uyg'onish davri ham deb yuritiladi. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at madaniyatimizning ravnaq topgan yillari bo'ldi. Adabiyot - san'at, fan va umuman, madaniyatimizning targ'ibotchilari bo'lgan bu allomalar ayni vaqtda voiz (notiq)lik san'atini ham yaratdilar.

IX-X asrlar orasida yashab ijod etgan Abu Nasr Farobiy (837-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi yirik olimlarimiz faqat zamonalarining ilm-fani bilan chegaralanib qolmay, ayni vaqtda notiq ham bo'lganlar

hamda notiqlikning tug'ilishi, shakllanishi va rivojiga ham katta e'tibor berganlar.

Bulardan tashqari, XI asrda Kaykavus tomonidan yaratilgan "Qobusnoma"da ham notiqlik san'ati haqida batafsid to'xtalib o'tilgan. Hatto muallifning ta'kidlashiga qaraganda, barcha hunarlar ichida so'z hunarini - notiqlikni ulug'laydi.

Notiqlik juda uzoq tarixga ega, ana shu davr ichida u shakllandi, o'zgardi va kamol topdi. Albatta bu tarixiy jarayonda nasldan-naslga meros qolishga arzigulik an'analar ham yetib keldi.

Sharq va xususan O'rta Osiyoda juda ko'plab notiqalar yetishib chiqdilar, faqat yetishib chiqdilargina emas, balki ular notiqlik asoslarini va maktabini yaratib, butun Sharqqa, hatto butun dunyoga mashhur bo'lganlar.

Jumladan:

Voiz Muhammad Rafi' - "Abvobul jinon".

Voiz Qazviniy - "Zilolu maqol".

Voiz shirvoniy - "Ahsanul ahodis".

Muhammad Bobur binni

Muhammad Voiz - "Hidoyatul-taqvim".

Quraysh Sindiy - "Anisul-voizin".

Mulla Kalon Voiz

Samarqandiy - "Ravzatul-voizin".

Qozi O'shiy - "Miftoxun-najjoh" ("So'zning

kaliti") va boshqa bir qator mohir so'z ustalari o'zlarining risolalarini yaratib, notiqlik nazariyasi sohasida ham katta yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Bularni har biri o'z tarixi, taqdiriga ega bo'lgan siymolardir.

Voizlikning kelib chiqishi tarixi ham ancha qiziq. Shveytsar olimi Adam Metsning ma'lumotlariga ko'ra ilgari podshohlar el oldiga chiqib davlat tuzumi, itoatkorlik, xalqaro ahvol, diniy qoidalar, o'z siyosatlari va boshqa mavzularda nutq so'zlab turganlar. Ularning nutq matnlarini esa, saroy xodimlari, ya'ni devonul insho xodimlari yozib bergan. Ayniqsa, juma namozi kunlari ularning chiqib, nutq so'zlashlari shart bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan bunday ishlarni maxsus so'z ustalariga topshira boshlaganlar. Jumladan Mavlono Faxriddin Ali Safiyning "Latoyifut-tavoyif" asarida aytilishicha, Sulton Husayn Boyqaro bir kuni Sherozga, Shoh Shijo' oldiga rasmiy davlat ishi bilan muzokara olib borish uchun bir vakil yubormoqchi bo'lgan. Arkoni davlat bilan maslahatlashib, Mavlono Irshoddan boshqa munosib kishi topa olmaydilar.

Xullas. Irshod borib rasmiy ishlarni oz muddatda ijobiy hal etadi. Ammo, uning notiqlik mahoratiga qoyil qolgan shoh Shijo' Irshodga javob bermay, bir majlis qurib keyin ketishi mumkinligini aytib iltimos qiladi. Notiq majlisni juma kuniga tayinlaydi. Boshqa odamlar qatori Shoh va uning a'yonlari ham masjidi Jomega yig'iladilar. O'sha kuni Mavlono Irshod shunday ehtirosli nutq so'zlaydiki, yig'ilgan xaloyiq ho'ng-ho'ng yig'lay boshlaydi. Notiq hamma nutqqa berilib ketib yig'layotganini ko'radi. Shunda Mavlono Irshod o'z notiqligining yana bir bunyodkor kuchini namoyish qiladi: u to'satdan shunday kutilmagan burilish yasaydiki, hamma birdaniga ko'z yoshi aralash qah-qah soladi.

Shoh Shijo' ham, yig'ilgan xaloyiq ham buyuk notiq Mavlono Irshodni hurmat-ehtiromlar bilan kuzatib qo'yadilar.

O'zbek xalqi orasida Mavlono Irshodga o'xshagan notiqlar juda ko'p bo'lgan. Ulardan biri farg'onalik mashhur notiq qozi O'shiy bo'lgan. U O'sh shahridagi qozilik lavozimida ishlagani uchun qozi O'shiy taxallusiga ega bo'lgan.

U xalq o'rtasida juda katta obro'ga ega bo'lgan. Yuqoridagi asarda yozilishicha, Erondagi Siiston viloyatining xalqi qatti qo'lligi bilan dong chiqargan, hatto gadoyga ham non bermas ekanlar. Qozi O'shiy esa bu xalqning ko'ngil qulfini so'z kaliti bilan ochib yumshataman deydi. U Siistonga borib bir-ikki hafta shu xalq ichida yuradi, ularning ruhiy holatini o'rganadi. Shahar qozisidan ruxsat olib, juma kuni masjidi Jomeda katta nutq so'zlaydi, notiq bilan baravar xalqning fig'oni falakka ko'tariladi. Siiston xalqi topgan-tutganini minbar ostiga tashlaydi. Lekin qozi O'shiy nutqi uchun hech kimdan haq olmasligini aytadi, buni eshitgan xalq notiqni yanada e'zozlaydi.

Notiq, u xalqning xasis emasligini, aksincha olijanob ekanligini, xalqning mehr xazinasini ochish uchun munosib kalit topa olish kerak ekanligini isbot etadi.

Mutaxassis notiqnlarni voizlar deb ataganlar. Ularning va'z matnlari odatda chiroyli va badiiy yuksak saviyada bo'lgan. Nutq matnlarining aksariyati nasriy she'r va hatto she'riy shakllarda yozilgan.

O'tmish Sharq notiqnlari orasida o'z zamonasining Demosfen va Sitseronlari juda ko'p bo'lgan. O'zbek va yunon san'atkor-mutafakkirlarining nutq talqinlari, ta'sirchanligi va notiqlik san'ati asoslari bo'yicha, olg'a surgan fikrlari jahon taraqqiyparvar notiqligining shu masalalaridagi talqinlari bilan hamohangdir.

Biz Alisher Navoiy tomonidan tilga olingan va ularning ijodi haqida fikr yuritgan notiqlardan faqat uch voiz haqida qisqa-qisqa ma'lumot beramiz.

Xoja Muayyad Mehnagiy. U o'z zamonasining yetuk notiqalaridan bo'lish bilan birga, oddiy mozar shayxlaridan bo'lgan. Alisher Navoiyning yozishicha, u "zohir ulumin takmil qilib erdi", ya'ni yuzadagi ilmlar, o'ziga ayon bo'lgan fanlarning hammasini o'zlashtirganga emas, balki uni to'ldirgan va rivojlantirgan ham edi. Uning va'zlari jo'shqin o'tgan, o'z tinglovchilaridan nutqiga nisbatan xayrixohlik qo'zg'ata olgan. Shuning bilan birga u o'z tinglovchilari qalbiga qo'l sola olgan, ularni faatgina tinglovchilikdan, har birini faol fikr yurituvchi, va'z mazmuniga nisbatan faol munosabatda bo'luvchi ijodkor tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. O'z majlislarining qizg'in o'tishiga erisha olgan.

O'sha davrlarda Xoja Muayyad kabi otashnafas notiqar soni juda kam bo'lgan. Shuning uchun ham ular nomi ulkan adiblar nomi qatoriga tarix sahifasidan sharaflari o'rin olgan. Uning ijodiy mahorati boshqa notiqar uchun namuna bo'la oladi. Chunki, u o'sha davrdagi mavjud fanlarning barchasini to'la o'zlashtirgan va ularni takomillashtirgan donishmand olimdir.

Xoja Muayyad kabi, mahorat va bilimga ega bo'lgan har bir notiq o'z tinglovchilari qalbini larzaga keltirishi, ularni hayajonga sola olishi turgan gap. Ana shunday qudrat-zakovati tufayligina sultonlar, podshohlar ham uning mahorati, iste'dodi oldida bosh egkanlar.

Mavlono Riyoziy. Mavlono Riyoziy Zova deb atalgan viloyatda o'sdi, ulg'aydi. O'zining aql zakovati ila shu viloyatning qozilik lavozimigacha ko'tarildi. Biroq, Alisher Navoiy "Majolisun nafois" asarida yozishicha u ayrim o'rinsiz hatti-harakatlari uchun qozilik lavozimidan chetlashtirilgan, kishanga solib badarg'a qilingan. Natijada bir umr ta'qib ostida yuradi, g'ariblikda kun kechiradi.

Mavlono Riyoziyning notiqlik darajasiga erishuvida mamlakat hukmronlari mafkurasi bilan uning insonparvarlik qarashlari o'rtasidagi kelishmovchilik, turli ziddiyatlar asosiy omillardan biri bo'lgan. Riyoziy notiqligining tabiiy tomonlaridan biri hamdardlik tuyg'ularini birinchi o'ringa qo'ya bilishdir.

Alisher Navoiyning yozishicha: "... va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qub, yig'lab vajdi hol qilur erdi", -deydi. Shoirning bu so'zlari ancha diqqat-e'tiborga loyiq, chunki, el oldida rasmiy nutq bilan chiqib, yig'lash darajasiga borib yetish va bu ko'z yoshiga nisbatan tinglovchilarda kulgi

emas, balki hamdardlik kayfiyatini uyg`ota olish uchun katta san'atkorlik mahorati kerak. Mavlono Riyoziy nutq paytida ko`z yoshi darajasiga yetib borar ekan, qalbidagina yig`lab bayon etar va kishilarni shunga ishontira olar ekan, demak shubhasiz, u juda iste'dodli notiq, chinakam so`z san'atkori bo`lgan.

Mavlono Riyoziy ajoyib so`z san'atkori bo`lish bilan bir qatorda, u o`z davrining ko`zga ko`ringan pedagoglaridan biri bo`lgan. U o`z ishlarini dunyoviy fanlar: tabiatshunoslik, geografiya, tarix, adabiyot nazariyasi va boshqa fanlarni chuqur o`rganib, uni yoshlar o`rtasida targ`ib qilgan.

Alisher Navoiyning yozishiga qaraganda Mavlono Riyoziy o`z fikrida qattiq turuvchi va shu fikr uchun kurashuvchi shaxs, sadoqatli va mohir pedagog va butun hayotini sevimli kasbiga bag`ishlagan ulug`vor inson ekanligini ta'kidlaydi.

O`z kasbining mohir ustasi bo`lgan Mavlono Riyoziy o`z nutqlarida boshqa notiqlar qatori xalq og`zaki ijodidan, va ayniqsa, badiiy adabiyotdan juda ustalik bilan foydalangan. U o`z zamonasining zabardast notig`i, olimi, pedagog va shoirlaridan bo`lgan.

Husayn Voiz Koshifiy. Husayn Voiz asli tug`ilgan joyi Eronning shimoli-sharqidagi Sabzavor shahri bo`lib, qachon tug`ilgani hozircha bizga noma'lum, sharqshunos olimlarning fikriga qaraganda vafot etgan yili 1504-1505 yillarga to`g`ri keladi. Xullas, Husayn Voiz Alisher Navoiyning zamondoshi, u bilan bir davrda yashagan, ijod qilgan hatto Alisher navoiydan 3-4 yil keyin olamdan o`tgan.

Husayn Voizning eng asosiy fazilati, uning ilm egasi ekanligidadir. U juda ko`p fanlarni egallagan va ularning har birida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borgan mashhur olimlardan biridir. Uning:

"Javohirut tafsir" yoki "Tafsiri Husayniy", "Mavohibud dunyo", "Lubbi lubob", "Anvori Suhayliy", "Ravzatush shuhado", "Dah, majlis", "Axloqi Muhsiniy", "Mahzanul insho", "Sabo", "Koshifiya", "Asrori Qosimiy", "Hotamnoma", "Matla'ul anvor", "Ixtiyorot" va boshqa bir qator asarlari shundan dalolat beradi.

Husayn Koshifiy notiq sifatida o`z zamonasining mashhur notiqalaridan bo`lgan. Uning nutqini eshitish uchun shaharning turli tomonlaridan yig`ilishar, tinglovchilar soni shu qadar ko`payib ketishi natijasida orqada turganlarga notiqning ovozi yetib kelolmasa ham, uning ichki ruhiy holatini turli holatlar orqali ifodalanishini kuzatar ekanlar.

Husayn Voiz notiq sifatida shu qadar hurmatga sazovor bo`lganki, buning asosiy sabablaridan biri, uning ovozining shiraliligi, ohangi, ichki ruhiy holatni turli harakatlar bilan ifoda qila bilishi bo`lgan. Shuning

uchun bo'lsa kerak, uni doimo har yerga taklif etishavergani, shuning natijasida u aniq jadval bilan ishlashga majbur bo'lgan.

Xondamirning aytishiga qaraganda, u juma kuni ertalab Hirotning markaziy chorsusida joylashgan shoh namozgohida va'z aytgan, shu kuni peshindan keyin Alisher Navoiyning masjidida, seshanba kuni Sulton Husaynning madrasasida, chorshanba kuni pir Mujarrad Xoja Abdul Valid Ahmad mozori boshida, payshanba kuni Sulton Ahmad Mirzo mozori boshida nutq so'zlagan.

Bularning barchasi, notiqning har tomonlama bilimdonligidan va jahonning baland-pastini yaxshi bilganligi, uning nutqining sermazmun bo'lishini ta'minlagan omillardan biridir.

Ifodali o'qishning asosiy vositalari.

(Urg'u, pauza, intonasiya, temp va ritm)

Reja:

1. Urg'u haqida umumiy ma'lumot.
2. Urg'uning turlari.
3. Pauza haqida umumiy ma'lumot. Pauzaning turlari.
4. Intonasiya haqida umumiy ma'lumot.
5. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda nutq san'atining ahamiyati.
6. Ritm haqida umumiy ma'lumot.
7. Temp haqida umumiy ma'lumot.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel - "Poetika" T. 1980 y.
2. Axmedov A. - "Notiqlik san'ati" T. 1967 y.
3. Oripov K., Obidova M. "Ifodali o'qish" T.1992 y.
4. Inomxo'jayeva S., Zunnunov A. "Ifodali o'qish asoslari" T. 1978 y.
5. Jo'rayev K. "Ifodali o'qish va himoya qilish" T. 1986 y.
6. Yodgorov N. "Gigiyena golosa i yego fiziologicheskoye osnovo" M. 1967.
7. Leonardi YE.I. "Deksiya orfoepiya" M. 1967.
8. Sayfuddinov A. "Og'zaki nutqda pauzaning ahamiyati" T. 1965 y.
9. Xo'jayeva L. "Lektor haqida ifoda vositalari" T. 1964 y.

Urg'u haqida umumiy ma'lumot.

Urg'u ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, u ta'kidlash, alohida e'tibor qaratish uchun xizmat qiladi. Urg'u so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga, ma'noni to'g'ri va to'la anglashga yordam beradi.

Urg'u ilmiy adabiyotlarga leksik urg'u, dinamik urg'u, rimik urg'u, mantiqiy urg'u, tradision urg'u, psixologik urg'u kabi bir necha turga bo'lib o'rganiladi.

Bu bo'linish lingvistik jihatdan to'g'ri, ammo biz talabalarni ifodali o'qishga o'rgatish va ifodali o'qishning nazariy masalalari haqida ma'lumot olishlarini osonlashtirish maqsadida urg'uning ikki turi xususida to'xtalmoqchimiz:

1. So'z urg'usi.
2. Mantiqiy urg'u.

So'z urg'usi. So'z urg'usi tushgan bo'g'indagi unli shu so'zning boshqa bo'g'inlaridagi unli tovushlariga qaraganda kuchliroq, cho'ziqroq talaffuz etiladi.

So'z urg'usi lingvistik adabiyotlarda leksik urg'u nomi bilan ham yuritiladi.

O'zbek tilida so'z urg'usi, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'u ham ko'cha boradi. Masalan: bola, bolalar, bolalarga; ishchi, ishchilar, ishchilarga.

Bu hodisa ko'proq, turkiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga ham xosdir. Ammo, bunda o'zbek tilida urg'uning o'rni o'zgarmas ekan degan xulosa chiqmaydi. O'zbek tilida shunday so'zlar ham borki, so'z boshida kelgan urg'u so'nggi bo'g'inlarga tushmaydi. Masalan: qaysi, qanday, qancha.

Demak, o'zbek tilida urg'u so'zning boshida, o'rtasida va oxirida ham kelishi mumkin. Masalan:

- A) so'z boshida; kelsi, kimdir, allakim, doim, bari, hamma;
- B) so'z o'rtasida; albatta, mardlarcha, afsuski, yaxshigina, achchiqqina, o'qituvchiman;
- V) so'z oxirida; oqqush, otboqar, to'proq, bozor, Uchqo'rg'on, Beshariq.

Adabiy talaffuzni normallashtirish va nutq madaniyatini rivojlantirish, o'zbek tiliga internasional so'zlarning tobora ko'plab kirishi va keng omma nutqiga singib borishi tufayli urg'uning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z urg'usining vazifasi ancha kengaydi.

O'zbek tilida urg'u ma'noni farqlash xususiyatiga ega; olma, (meva, ot) olma (buyruq fe'li); atlas (mato), atlas (geografik karta); kesma (ovqat turi, ot) kesma (buyruq fe'li); tugma (kiyim tugma ot), tugma (buyruq fe'li); gulsiz (guli yo'q, sifat), gulsiz (guldaysiz, o'zshatish); qizgina (kichkina qizcha, kichraytirish); qizgina (qizning o'zi, ajratib ko'rsatish).

Bulardan tashqari, hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zlashib ketgan ruscha-baynalminal so'zlarda ham urg'u ma'noni farqlash xususiyatiga ega. Urg'u quyidagi so'zlarning birinchi bo'g'iniga tushsa sifatga aylanadi. Masalan: akademik-ot, akademik-sifat, matematik-ot, matematik-sifat; texnik-ot, texnik-sifat.

Shuning uchun ham o'quvchi-talabani matnni ifodali o'qishga o'rgatishdan oldin, ularni matndagi so'zlarning ma'nosi bilan tanishtirish, so'zlarning urg'uli bo'g'inini aniqlashga o'rgatish lozim.

Mantiqiy urg'u. Mantiqiy urg'u matnda yashiringan bo'ladi. Badiiy asarlarni ifodali o'qishdan oldin yashiringan mantiqiy urg'uni aniqlash uchun matnni avval bir necha marta o'qib, muallif maqsadini tushinish, so'ngra mantiqiy urg'uli so'zni aniqlash mumkin. Mantiqiy urg'uni izlayotganda badiiy asardagi uyushib kelgan va ma'noni kuchaytirish uchun qo'llangan takroriy so'zlarga hamda ayrim gaplardagi ta'kidlovchi so'zlarga alohida e'tibor berish lozim. odatda, mantiqiy urg'udan keyin qisqa pauza qilinadi.

Misollar:

Ey Farg'ona!
Mushkul kunlar bolasini.
Tishida tishlab,
Yuvib,
Tarab,
Sevib,
O'pib,
quchib,
opichlab,
Ey baxtlarni balog'atga yetkazgan ona!
(Hamid Olimjon)

Pauza haqida umumiy ma'lumot.

Pauzaning asosiy turlari.

Kishilar gapirish jarayonida ma'lum darajada qisqacha, to'xtab, nafas oladilar va o'pkalarini qayta havoga to'ldirib, nutqni davom ettiradilar. Nutqdagi ana shunday to'xtash, tinish yoki shunday kichik talaffuzga pauza deyiladi.

Badiiy asarlarni ifodali o'qishda pazaning o'ziga xos o'rni bo'lib, u asarning janr xususiyati, mazmuni va sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq. Badiiy asarda pauza muallif fikrning tinglovchiga aniq va to'la yetib borishiga katta yordam beradi.

Pauza she'riy asarlarda aksariyat so'roqlarga tushadi va his-hayajon bag'ishlaydi. She'rlardagi bayt yoki bandlar asarning tugallangan bir bo'lagi sifatida bir-biridan doimo pauza bilan ajraladi.

Masalan:

Ko'm-ko'k...

Ko'm-ko'k...

Ko'm-ko'k...

Mehnat sharaf va shon bo'lgan Vodiylar

Ko'm-ko'k...

Pauzaning turlari haqida har xil fikrlar mavjud. Biz talabalarga tushunarli bo'lsin uchun uni uch ko'rinishga bo'lib o'rganamiz:

1. Grammatik pauza
2. Mantiqiy pauza
3. Psixologik pauza.

Grammatik pauza. Badiiy asarlar ifodali o'qiganda tinish belgilarida qisqa pauza qilinadi. Bunday pauza grammatik pauza deyiladi.

O'zbek tilida quyidagi tinish belgilari ishlatiladi:

Nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), ko'p nuqta (...)

Vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), tire (-), qavs () va qo'shtirnoq («»).

Mantiqiy pauza. So'z guruhlarini bir-biridan ajratib, matn ma'nosini aniq va to'la ifodalashga xizmat etuvchi pazaga mantiqiy (logik) pauza deyiladi. Mantiqiy pauza matnni kesib o'tgan to'g'ri chiziqqa (G') bilan belgilanadi. Masalan: Ammo (ertaga sahar paytda) juda uzoqdan bir maqomda guldiragan tovush (arang quloqqa chalindi), bu tovush (o'rmondagi shovur-shuvurlar orasidan) zo'rg'a eshitiladi.

She'riyatda mantiqiy pazalar asarning kompazisiyasiga qarab ham belgilanadi. Masalan: Uyg'unning «Tong» she'ri ifodali o'qilganda quyidagi mantiqiy pauza qilinadi.

Sahar chog'i... G' kumush kabi shuuringdanG'
Sirg'a taqib G' yaprog'iga bosh qo'yibG'
Gullar tunning quchog'ida mudraydiG'
Titrab-titrab unda-bunda yulduzlarG'
Shoshib-pishib yotog'iga ketgali G'
Dargohiga yetgaliG'
Oltin shohi etagini sudraydi. G'

Mantiqiy pauza ifodali o'qishning o'ziga xos eng muhim unsurlaridan biri bo'lib, u faqatgina mantiq qonuniyatiga rioya qiladi, lozim bo'lsa, tinish belgilarini ham mutlaqo inkor etadi.

Mantiqiy pauza gapning mazmunini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Misol uchun quyidagi jummalarni ikki xil pauza bilan o'qib, ma'no o'zgarishiga e'tibor bering:

1. Yaramas G' itday o'lib ketdi
Yaramas itday G' o'lib ketdi.
2. Aldasam G' sizni yer yutsin
Aldasam sizni G' yer yutsin.

Mantiqiy pauzaning bunday jozibador kuchidan xalq donishmandlari unumli foydalanganlar.

Psixologik pauza. Muallifning matnida yashiringan kuchli his-hayajonini psixologik pauza orqali ifodalash mumkin. Psixologik pauza o'quvchi va notiq nutqiga jonlilik kiritib, asarning ta'sirchanligini oshiradi. Psixologik pauza ikki chiziqqa (G'G') bilan belgilanadi.

Badiiy asarlarning o'xshatish, sifatlash, mubolag'a, istiora va boshqa tasviriylar ifoda vositalari qo'llangan o'rinlarda ham muhimdir.

Intonasiya haqida umumiy ma'lumot.

Ma'lumki, nutq tafakkur mahsulidir. Kishi fikri yoki maqsadini ikkinchi bir kishiga so'zlar vositasida yetkazib, o'zaro fikr almashadi, aloqada bo'ladi va kayfiyatini ifoda etadi. fikr – tuyg'ular, maqsad-intilishlar, his-hayajonlar boshqalarga ovoz tovlanishi orqali ham yetib boradi. Muayyan istak, niyat-intilish, haakat natijasida yuzaga keluvchi ana shu ovoz tovlanishlariga intonasiya deyiladi.

Ifodali o'qish jarayonida intonasiyaning ahamiyati katta.

Badiiy asarda intonasiya orqali qahramonlarning turli kayfiyati, ichik kechinmasi ifodalanadi. Ayniqsa, poetik asarlarning ritmik ohangdorligini tinglovchiga yetkazishda intonasiya katta rol o'ynaydi.

Intonasiyaning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ta'kidlanganidek u asar mazmuni, avtor maqsadi, fikr-tuyg'usi hamda kayfiyatidan tabiiy ravishda kelib chiqadi.

Badiiy asarlarni ifodali o'qishda nutq san'atining ahamiyati.

Tinglovchiga asarning g'oyaviy mazmunini, muallifning hayot haqidagi fikr-mulohazalarini, qahramonlarning ichki hissiyotlarini yetkazish ifodali o'qish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifadir. Shu maqsadda har bir talaba ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini mukammal o'rganishi kerak. Uni puxta o'zlashtirgan kishining nutqi ravon, shirali bo'lib, o'z fikrini tinglovchilarga to'g'ri va izchil yetkaza oladi.

To'g'ri, badiiy asarlarning hammasi ham bir xilda o'qilavermaydi. Har qanday asarni ifodali o'qish uning janr xususiyatlari va kompozision tuzilishiga ko'ra belgilanadi. O'qituvchi asarni ifodali o'qisha kirishishdan oldin uning g'oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rganishi lozim.

She'riy asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari o'qiladigan asarning janri, ritmi, qofiyalanish tartibi va band qurilishiga bog'liq.

Ritm haqida umumiy ma'lumot.

Ritm grekcha (rhuthmos–ritmos) so'zidan olingan bo'lib, vazifadosh, ohangdosh degan ma'nolarni anglatadi. Ritm ifodali o'qishda katta o'rin tutadi.

Badiiy adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda misradagi kichik bo'laklarning bir-biriga monand ravishda takrorlanib kelishi ritmni hosil qiladi.masalan, barmoq tizimidagi she'rlarda ritm, turoq, qofiya, radiflar yordamida va misralardagi hijolarning bir tekisda takrorlanishidan maydonga keladi. Aruz tizimiga mansub she'rlarda esa, ritm, cho'ziq va qisqa hijolarning bir xil tartibda takrorlanishidan hosil bo'ladi. Erkin she'rlarda har bir satr zinapoya shaklida bo'laklarga bo'lib yoziladi va ularni o'qiganda mazmunga qarab, ritm saqlanadi.

Poeziyada ritmni bir-necha ichki turlarga bo'lib ko'rsatish mumkin. Masalan, band (strofa) ritmi, alleterasion ritm, anafora ritmi, intonasion

ritm, ijrochilik pauzalariga bog'liq bo'lgan ritmlar va boshqalar. Biz bulardan band ritmi, alleterasion ritm va anafora ritmi haqida fikr yuritish bilan cheklanamiz.

Band ritmi. O'zbek poeziyasida band qurilishi bilan bog'liq ritm band ritmi deb ataladi. Bandlarning qofiyalanish tartibi har-xil bo'lib, ular o'ziga xos ritm hosil qiladi. Masalan, Masnaviy:

Vodiylarni yayovkezganda, - a
Bir ajib his bor edi menda...-a
Chappar urib gullagan bog'in, -b
O'par edim Vatan tuprog'in. -b
Odamlardan tinglab hikoya -v
O'sar edi shoirda g'oya...-v

Alliterasion ritm. Bir xildagi ohangdosh tovushlarning takrorlanishi natijasida hosil bo'ladi:

Bu yo'llar ko'p qadim yo'llardir,
Uzala tushgan cho'l kabi sokin.
Ustidan shabada esmagan tiniq ko'l kabi,
Og'zi qon bir bo'ri yo oqsoq bir it:
Hayqirsa, uvlasa,
Har tongda bir dong deb bong ursa dovullar...

Anafora ritmi – poetik asarlarning misralari boshida yoki prozaik asarlardagi gaplarning oxirida bir xil tovush, ohangdosh so'z yoki iboralarning takrorlanib kelishidan hosil bo'ladi.

Masalan,

Ko'm-ko'k
Ko'm-ko'k
Ko'm-ko'k...

Ko'klam quyoshdan ko'kargan qirlar
Po'lat yag'rinlarni ko'targan yerlar ko'm-ko'k.
Qora zulfig firoqida parishon ro'zg'orimbora,
Yuzungning ishtiyoqida ne sabru qarorim bor.
Labing bag'rimni qon qildi,
ko'zimdin qon ravon qildi,
Nega holim yomon qildi men andin
Bir so'rorim bor...

Anafora ritmi – bir necha gapning sintaktik jihatdan bir xilda bog'lanib kelishidan ham paydo bo'ladi:

Menikidir kelajak, chaman
Menikidir maktab, ijod, fan,
Menikidir sog', aql, badan,
Ko'nglim to'lin oy kabi ravshan.

Temp va ritm bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, badiiy matnni ifodali o'qishda ularga qat'iy amal qilingandagina muallif maqsadiga to'la tushunish mumkin.

Temp haqida umumiy ma'lumot.

Olamda hayot mavjud unda harakat bor, harakat boy joyda esa – temp, temp bor joyda ritm bor. Demak, hayot va mehnatni ma'lum temp va ritmsiz tasavvur etish mumkin emas.

Mehnat ma'lum bir me'yorda takrorlansa charchatmaydi. Shuning uchun ham mehnat jarayonida aytiladigan ashulalar ohangi o'sha ish-harakatga hamohang bo'ladi.

Badiiy adabiyot hayotni in'ipos ettirar ekan, unda ham temp va ritm saqlanadi. Bu yozuvda tinish belgilari orqali ifodalanadi.

Badiiy adabiyotda temp va ritm asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini ochishga xizmat qiladi, nutqning emosional ta'sirchanligini kuchaytiradi, estetik zavq uyg'otadi. Demak, temp va ritm ifodali o'qishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday asarda o'ziga xos temp va ritm yashiringan bo'ladi. Shuning uchun o'quvchi to'g'ridan-to'g'ri ifodali o'qishga kirishmasdan, avval asar bilan puxta tanishib chiqishi zarur. So'ngra, asarning temp va ritmi o'zgaradigan yerlarini qalam bilan belgilab olgach, ifodali o'qishga kirishsa asar mazmuni muallif maqsadi tinglovchiga to'lqin yetib boradi.

Temp lotincha (tempus - tempus) so'zidan olingan bo'lib, sur'at, daraja, vaqt degan ma'nolarni anglatadi.

Temp - ifodali o'qishning his-hayajon jihatdan intensivligi, uning istirobli, hayajonli nafasidir. Agarda temp qahramonlarning ichki kechinmalari, his-hayajon, voqealar rivojlanishining keskinligi darajasiga ko'ra o'zgarib turadi.

Ifodali o'qish jarayonida tempni ko'tarish hovliqish degan gap emas, aksincha jonlantirish demakdir.

"Agar biror harakat ma'lum bir vaqt me'yorida bajarilsa, tempni ko'tarish o'sha vaqtni bir oz qisqartirishga olib keladi, natijada yashash (kechinma)ni ham, shu orada aytiladigan so'zni ham bir oz tezlashtirib, qisqartirilgan vaqt miqyosiga joylashtirishga to'g'ri keladi".

Agar ifodali o'qish jarayonida temp inobatga olinmasa, nutq so'lg'in, jonsiz bo'lib, ta'sir kuchi pasayadi. Bunga G'ofur G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ridan olingan quyidagi parcha yaxshi misol bo'la oladi.

Nega cho'chib tushding?

Murg'ak tasavvur.

Go'dak xayolingga

Nimalar keldi?

Shunday qilib, nutq tempi asar mazmuni va muallif maqsadiga ko'ra goh pasayadi, goh ko'tariladi.

Ifodali o'qishda nutq a'zolarining roli

Reja:

1. Nafas – ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri.
2. Nafas mashqlari.
3. Badiiy asarlarni ifodali o'qishda ovozning turli ohangda ishlatilishi.
4. Diksiya – notiq va adabiyot o'qituvchining nutqining asosiy qurollaridan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel - "Poetika" T. 1980 y.
2. Axmedov A. - "Notiqlik san'ati" T. 1967 y.
3. Oripov K., Obidova M. "Ifodali o'qish" T.1992 y.
4. Inomxo'jayeva S., Zunnunov A. "Ifodali o'qish asoslari" T. 1978 y.
5. Jo'rayev K. "Ifodali o'qish va himoya qilish" T. 1986 y.
6. Yodgorov N. "Gigiyena golosa i yego fiziologicheskoye osnovo" M. 1967.
7. Leonardi YE.I. "Deksiya orfoepiya" M. 1967.
8. Sayfuddinov A. "Og'zaki nutqda pauzaning ahamiyati" T. 1965 y.
9. Xo'jayeva L. "Lektor haqida ifoda vositalari" T. 1964 y.

Nafas – ifodali o`qishning asosiy vasitalaridan biri

Ifodali o`qish jarayonida nafas, ovoz va nutq a`zolari faol ishtirok etadi.

Nafas – ifodali o`qishning muhim vositalaridan biridir. U kishi organizmi uchun ham asosiy oziqa hisoblanadi. Shuning bilan birga, nutq so`zlash jarayoni, ayniqsa, ifodali o`qish san`ati nafas negizi bilan uzviy aloqadordir.

Nafas olinganda havo burun bo'shlig'idan kekirdakka boradi va nafas yo'li orqali o'pkaga o'tadi. O'pkaga kirgan havo qovurg'a muskullarini kengaytiradi, natijada qovurg'alar qorin bo'shlig'idan uzoqlashib ikki yonga gengayadi. Aniqrog'i, ko'krak qafasi har tomonga kengayadi. Shu bir vaqtda qorin bo'shlig'ini ko'krak bo'shlig'idan ajratuvchi diafragma o'pkaning havoga tushib kengayishi hisobiga pastga yaqqol sezilib turadi.

To'g'ri nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o'qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Agar noto'g'ri nafas olishsa – o'rinsiz pauzalar qilishsa, o'qilayotgan mantiqan buziladi. Matndagi muallif maqsadi tinglovchiga to'g'ri yetib bormaydi fikr tushunarsiz bo'lib qoladi.

Shuning uchun oliy va o'rta maktablarning o'qituvchilari o'zlarining va o'quvchilarning nafas organlari muskullarini chiniqtirib borishlari lozim. bu borada amalga oshiriladigan chora va tadbirlar insonni sog' va baquvvat qiladi, tovush va nutqning aniq, ravon, burro va jarangdosh bo'lishini ta'minlaydi.

1 mashq.

Daslabki holat. Gavda to'g'ri tutilib, oyoq tovonlari bir-biridan yelka kengligida uzoqlashtiradi. qo'llar yelka kengligida oldinga cho'zilgan holda ko'tariladi, kaftlar bir-biriga tegib turadi va ko'llar ikki yonga yo'naltirilib, burun orqali nafas olinadi. Ikki deganda, gavda o'z holiga qaytariladi, ko'llar yana oldinga cho'zilgan holda kaftlar bir-biriga tegizilib, og'izdan nafas chiqariladi.

Shu tarzda, bir deganda, yuqorida aytilgan holatga kelib, nafas olinadi, ikki deganda esa asl holatga qaytib nafas chiqariladi. Bu mashq har safar 4-5 marta qaytariladi.

Eslatma: har bir mashqdan nafasni faqat burun orqali olib, og'izdan chiqarishni unutmang.

2-mashq.

Bu mashqda gavadani to'g'ri tutgan holda tomonlar bir-biriga yaqinlashtiriladi, panjalar bir oz kenglikda tutilib, qo'llar bo'yiga olinadi.

Bir deganda, tovon ko'tarilib, oyoq uchida turiladi. qo'llar ikki tomonga cho'zilib, burun orqali nafas olinadi. Ikki deganda, oyoq uchida turgan holatda o'tiriladi. Tizza bir-biri bilan juftlashtirilib, qo'llar oldinga cho'ziladi va nafas chiqariladi. Nega deganda, asta-sekin o'sha holatda o'rnidan turib, qo'llar ikki tomonga cho'zilib, nafas olinadi. Bu mashq ham har safar 4-5 marta qaytariladi.

To'g'ri nafas olish hayot uchun naqadar zarur bo'lsa, ovoz ham kishilarning bir-birlari bilan bo'ladigan muomalasida katta ahamiyatga egadir. Xo'sh ovoz qanday hosil bo'ladi?

Ovoz oliy asab tizimi signallarining mahsulidir. Oliy asab tizimi biror narsaga tikelish uchun ko'zlarga, biror narsani olish uchun qo'llarga, oldinga qo'dash uchun oyoqlarga buyruq (signal) bergani kabi ovoz chiqarish, nutq tovushlari yoki so'zlarni talaffuz etish, ovozni jaranglatish yoki xiralatish, past yoki baland gapirish uchun ham muayyan a'zolarga signal beradi. Bu a'zolar esa, oliy asab tizimining buyruqlarini bajaradi. Ana shunday buyruqlarni bajarishda, ovozning muhim a'zolari bo'lgan halqasimon, pardasimon va qalqonsimon tog'aylar hamda ovoz naychalari asosiy rol o'ynaydi.

Hiqildoqning ichki devori ovoz yorug'ini hosil qiladi. Ularning cheti esa ovoz boylamlarini tashkil etadi. gorizontal holatda yotgan ovoz boylamlari asosan elastik to'qimalardan (naychalardan) tuzilgan.

Ular oldingi tomonda qalqonsimon tog'ay bilan birlashib turadi, orqada esa bir-birlaridan uzoqlashadi. Ana shu uzoqlashgan paytda ular o'rtasida burchak hosil bo'ladi, buni ovoz yorug' deyiladi. Ovoz yorug'i uchburchak shaklidadir.

Tog'aylarni bir-biriga yaqinlashtirib va uzoqlashtirib harakatga keltirib turuvchi kuch qalqonsimon va halqasimon bir juft muskuldir. Boylamlar tortilishi, qisqarishi yoki tebranishi mumkin.

Ular tinch turganda esa deyarli harakatsiz bo'ladi, ular orasidagi tovush yorug'i kichik bo'lib nafas olinayotganda ovozsiz o'tib turadi.

Dastlabki paydo bo'lgan tovush zaif va deyarli tembrsiz bo'ladi. Ovoz tembr va kuchga ega bo'lishi uchun qo'shimcha sharoilar talab qiladi. Bunda halqum, burun-halqum va og'iz bo'shlig'i rezonatorlik, ya'ni qaytargichlik vazifasini bajaradi. Ular tovushga ma'lum tus va kuch beradi.

Bunday tuslanishning siri ovozning fizik xossasi, ya'ning uning qattiq jismlariga duch kelgach urilib, qaytib rango-rang rezonais kasb etish tabiati bilan bog'liq. qayerda qaytargichlar ko'p bo'lsa, o'sha yerda ovoz kuchli, jarangdor va ko'rkam bo'ladi.

Demak, ovoz mashqlarida eng avvalo mana shu qonuniyatni nazarda tutish kerak.

Tembr hosil qilishda hiqildiqdosh chiqayotgan tovushning yo'nalish darajasi katta ahamiyatga ega. Agar tovush faqat burundan chiqsa xunuk, yoqimsiz, to'ng'illagan tembr hosil bo'ladi. Tovush faqat qattik tanglaydosh chiqsa, rangsiz «oq tovush», ya'ni shangu tovush hosil bo'ladi.

Tovush yumshoq tanglaydan chiqib, qattiq tanglayga tegib o'tsa, jarangdor, yoqimli tovush hosil bo'ladi.

Tovushning so'ngi xossasi esa uning balandligiga, ovoz boylamlarining kengayishi va tortilishi darajasiga hamda ularning qancha ko'p tarang qilib tortilsa, ovoz shuncha baland jarangdor; u qancha bo'g' bo'lsa, ovoz shuncha past va do'rillash bo'ladi.

Demak, tovushning asosiy xossalari, uning kuchi va tembri hamda baland-pastligi ovoz boylamlarining o'zigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, eng avval oliy asabtizimi signallariga, qolaversa tovush aparatiga taalluqlidir.

Tovush apparati esa, ta'kidlanganidek, oliy asab faoliyatining umumiy qonuniyatiga asosan harakat qiladi.

Bolalarning tovush apparati kattalarga nisbatan ancha nozikdir. Ayniqsa, bog'chada, maktabda tarbiyachi va o'qituvchilar bolalarning bo'lar-bo'lmasga baqirishlariga hamda bironta badiiy asardan olingan kuchlari boricha baqirib-chaqirib so'kishlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Agar biror badiiy parcha noto'g'ri diapozon va baladnlikda baqirib, kuchanib o'pilsa, u holda ovoz muskullarining o'ziga xos bo'lmagan holatda ishlashga sabab bo'ladi.

Ovozni normal holatga keltirish bir – ikki mashq qilish bilan emas, balki ovoz mashqlarini muntazam o'tkazish bilan amalga oshiriladi.

Shuning uchun ham ovoz mashqlariga uzoq muddatli va tizimli ish jarayoni deb qarash kerak.

Ovoz mashqlari ham butun bir murakkab tizimini tashkil etadi. ularni to'liq bilib olish uchun ovozni yo'lga qo'yish deb ataluvchi maxsus predmet bilan bog'liq adabiyotlarga murojaat etish mumkin.

Ovoz va nafasni birlashtiruvchi mashqlar

Ovoz va nafasni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida m, n, ng, l, r, sonor tovushlarga unlilarni qo'yish talaffuz etish mashqlari ham yaxshi natija beradi.

1-mashq. Berilgan harf birikmalarini diqqat bilan o'qing. ularning talaffuziga ahamiyat bering va har bir qatorni bir nafasda ayting.

Mi, me, ma, mo, mo', mu, mi.
Ni, ne, na, no, no', nu, ni.

li, le, la, lo lo', lu, li.
ri, re, ra, ro, ro', ru, ri.

2-mashq. Qator sonor tovushlar o'rtasidagi unli tovushlarni urg'u berib talaffuz eting.

м м м и м м	м м м э м м	м м м а м м	м м м ў м м
м м м у м м	м м м и м м	н н н и м м	н н н а м а
н н о о м м	н н н ў м м	н н н у м м	л л л и м л
л л э м м м	л л л а м м	л л л о м м	л л л у м м
л л л и м м	р р р и м м	р р р э м м	р р р о м м
р р р ў м м	р р р у м м	р р р и м м	р р р о м л

3-mashq.

Tez aytish mashqlari ham ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz etish ko'nikmasini hosil qiladi. quyidagi mashqqa berilgan misollarni oldin yakka, so'ngra birgalikda o'qing. so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor bering.

Bir tup tut, to'rt tup turp.

Tubsiz dengiz dedingizmi?
Dengsiz tengsiz dedingizmi?

Hasan Husanga kitob berdi
Husan Hasanga raxmat dedi.

Tilim – tilim tilla qovunning
To'rt tilimli lilimni tildi.

Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uzun quloq.
To'p-to'p ko'k koptok, har ko'k koptokda bittadan katta ko'k koptok.

Samarqanddagi usta Muso pistofurushning 33 qop puch pistasi bor ekan, shu 33 qop puch pista bo'lsa ham o'sha usta Muso pistafurush ekan, bo'lmasa ham o'sha usta Muso puch pistafurush ekan.

Durdonaning marjoni bir dona, u ming dona danak mag'zidan tuzilgan.

Diksiya – notiq va adabiyot o'qituvchisi nutqining asosiy qurollaridan biri.

Diksiya – lotincha **distio** so'zidan olingan bo'lib, so'zlarni aniq, burro talaffuz qilish degan ma'noni anglatadi. Badiiy asarni ifodali o'qishda nafas va ovoz kabi diksiyaning ham o'ziga xos o'rni bor. Badiiy asar o'qishda, mazmunning qayta hikoya qilishda va umuman, og'zaki nutqda diksiyaning qonun-qoidalariga rioya qilishsa, nutqning emosional ta'siri yana ham oshadi.

Diksiya orfoepiya bilan ham bog'liqdir.

Orfoepiya esa, nutqning tabiiy, aniq, ravon, hammaga tushunarli bo'lishini talab qiladi. Maktablarda, pedagogika institutlarining filologiya fakultetlarida bu masalaga katta e'tibor berish zarur, albatta.

Maktablarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishdan oldin har bir darsda unli va undosh tovushlarning, har bir so'zning, har bir jumlaning lug'oviy-fiziologik ma'nosini tushuntirib, so'ngra shu mo'zning talaffuzini o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Fan sifatida diksiyaning ro'i juda kattadir. U kishilarni, o'quvchilarni va o'qituvchilarni aniq hamda burro gapirish insonlar ongiga tez yetib boradi va ularga tez tushunarli bo'ladi.

Harflarni va tovushni, albatta, aniq va ravon talaffuz qilish kerak.

Negaki ularning ifoda darjasi yanada kengayadi.

